TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI TIBBIY RADIOLOGIYA KAFEDRASIDA TALABALAR ILMIY JAMIYATIGA BIRIKTIRILGAN TALABA-QIZLAR UCHUN TIBBIY RADIOLOGIYA YO‘NALISHIDA TASHKIL ETILGAN MENTORLIK KURSLARI

BAYONNOMASI

Yil davomida 2025-yil **Toshkent shahri**

Qatnashdilar: Kafedra mudiri, t.f.d., professor G.A. Yusupaliyeva, kafedra professorlari, dotsentlari, assistentlari hamda Talabalar ilmiy jamiyatiga biriktirilgan talaba-qizlar.

KUN TARTIBI:

1. Talaba-qizlarning ilmiy salohiyati va kasbiy bilimlarini rivojlantirish.
2. Tibbiy radiologiya sohasidagi zamonaviy diagnostika usullari bilan tanishtirish.
3. Talaba-qizlar uchun mentorlik va ustoz-shogird tizimini rivojlantirish.
4. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy maqolalar tayyorlash va konferensiyalarda ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

ESHITILDI:

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Tibbiy radiologiya kafedrasida Talabalar ilmiy jamiyatiga biriktirilgan talaba-qizlarning ilmiy salohiyatini oshirish, ularning kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida mentorlik kurslari tashkil etildi.





Mazkur kurslar kafedra mudiri, professor, dotsent va assistentlar tomonidan olib borilib, talaba-qizlarga tibbiy radiologiya sohasining dolzarb yo‘nalishlari, zamonaviy diagnostika texnologiyalari va ilmiy izlanishlar olib borish usullari bo‘yicha bilimlar berildi.

Mashg‘ulotlar davomida rentgen diagnostikasi, ultratovush tekshiruvi (UTT), kompyuter tomografiyasi (KT), magnit-rezonans tomografiya (MRT) hamda radiologik tasvirlarni tahlil qilishning asosiy tamoyillari haqida ma’lumotlar berildi.





Shuningdek, talaba-qizlarga ilmiy mavzu tanlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, maqola va tezislar tayyorlash, ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.





Mentorlik mashg‘ulotlari davomida ustoz-shogird an’analarini rivojlantirish, talaba-qizlarning mustaqil fikrlashi, ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi.





Mashg‘ulotlar interaktiv va amaliy tarzda tashkil etilib, talaba-qizlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar hamda ilmiy faoliyatga oid fikr va takliflarini bildirdilar.

QAROR QILINDI:

1. Talabalar ilmiy jamiyatiga biriktirilgan talaba-qizlarning ilmiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan mentorlik kurslari muntazam davom ettirilsin.

2. Talaba-qizlarning tibbiy radiologiya yo‘nalishidagi nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini oshirishga alohida e’tibor qaratilsin.

3. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy maqola va tezislar tayyorlash bo‘yicha ustoz-shogird tizimi asosida ishlar yo‘lga qo‘yilsin.

4. Iqtidorli talaba-qizlarni respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etishga jalb qilish choralari ko‘rilsin.

5. Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan talaba-qizlarga ilmiy va kasbiy faoliyatlari davomida mentorlik yordami ko‘rsatib borilsin.

Kafedra mudiri

professor: **G.A. Yusupaliyeva**

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari

ma’suli assistent: **S.M. Xaydarova**